

ELBEK POETIK ASARLARIDAGI METAFORALARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Jo'raqulova Shahnoza Bahodir qizi

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti

Lingvistika (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi 2- bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tolmas ijodkor Mashriq Yunus-Elbek ijodida uchrovchi lingvopoetika tahlili hamda tilshunoslikka oid faoliyatlari yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Lingvopoetika, metafora, nom ko'chish hodisalari, personifikatsiya, sinesteziya, gilerbola, qiyoslash.

Metafora (qadimgi yunoncha "ko'chirish; ko'chma ma'no", mēl "yuqorida" + phosos "ko'tarilish" so'zidan) - ob'ekt yoki hodisani qandaydir boshqa narsa bilan solishtirishga asoslangan so'z yoki ibora ko'chma ma'noda qo'llaniladi. ularning umumiy xususiyati haqida. Bu atama Aristotelga tegishli bo'lib, uning san'atni hayotga taqlid qilish sifatida tushinishi bilan bog'liq. Aristotel metaforasi o'z mohiyatiga ko'ra giperbola (bo'rttirib ko'rsatish), sinekdoxadan, oddiy qiyoslash yoki shaxslashtirish va o'xshatishdan deyarli farq qilmaydi. Barcha holatlarda bir so'zdan ikkinchisiga qandaydir ma'noning ko'chishi mavjud.

J. Lakoff va M. Jonsonlarning "Biz yashayotgan metafora" kitobida metafora – lingvistik, kognitiv va madaniy hodisaga kognitiv yondashuv asoslari ko'rsatilgan. Bu hodisani tilshunoslik va falsafada o'rganishning ilmiy jihatlari ham, zamonaviy jamiyatda, odamlar o'rtasidagi kundalik muloqotda metaforaning tutgan o'rni ham muhokama qilinadi. Metaforadan voqelikni anglash vositasi, inson tajribasini tashkil qilish, uning voqelik haqidagi bilimlarini tizimlashtirish vositasi sifatida foydalanish imkoniyatiga alohida e'tibor qaratiladi.

Metafora badiiy adabiyot (birinchi navbatda, she'riyat), til, madaniyat va san'at hodisasi sifatida hech qachon olimlar va san'atkorlar e'tiboridan chetda qolmagan. Albatta, qiziqish cho'qqilari ham bor edi. Ulardan biri XX asrning 60-70-yillariga to'g'ri keladi. Keyin metafora nazariyasi tarixshunoslaridan biri, agar metaforani o'rganayotgan talabalar soni bir xil progressiya bo'yicha ko'paysa, XXI asr boshiga kelib ularning soni odamlardan ko'proq bo'ladi, deb yozgan edi. Bizni "Biz yashayotgan metafora" kitobining asl tildagi birinchi nashridan deyarli chorak asr ajratib turadi. U metaforaga qiziqishning eng yuqori cho'qqisida paydo bo'ldi va bu masala bo'yicha ko'pgina nashrlarda bo'lgani kabi, ilmiy adabiyotlarning katta oqimida adashib qolishi mumkin edi. Biroq, bu J. Lakoff va M. Jonsonning kitobi bilan sodir bo'lmadi.yuritiladi.

Tilshunos olim N.Mahmudov shunday fikrlarni bildiradi: "Nutqda soʻzlarni koʻchma maʼnoda ishlatishning xilma-xil koʻrinishlari mavjud boʻlib, ular koʻchimlar (yoki troplar) nomi bilan umumlashtiriladi. Koʻchimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, yaʼni ikki narsa yoki tushuncha oʻrtasidagi muayyan munosabat (oʻxshashlik, umumiylik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga koʻchiriladi. Shuning uchun ham koʻchimlar oʻziga xos tasviriy vositalar sifatida nutqning ifodaliligini taʼminlashda alohida oʻrin tutadi".

Oʻzbek tilidagi lingvistik metaforalar maʼno ifoda etgan obyektlarning oʻxshatish holatiga koʻra, yuqorida qayd etilganday, uch turga: oddiy metafora, personifikatsiya va sinteziyaga boʻlinadi. Oddiy metafora maʼlum soʻzning leksik maʼnosi ifoda etgan obyekt oʻziga togʻridan-toʻgʻri oʻxshash boʻlgan ikkinchi bir obyektning nomdosh qilib olishi boʻladi. Shuning orqasida mazkur soʻz ikkinchi obyektning ham ifoda etuvchi koʻchma maʼno orttiradi. Bu obyektlar oʻrtasidagi oʻxshashlik ularning sirtqi belgisi, harakat va holat xususiyati, vazifasi kabilarga asoslanadi. Masalan, darvoza soʻzi qurilishga oid bir tushunchani ifoda etadi. Sportga oid, toʻp va shayba kiritish uchun moʻljallangan qurilma ham mazkur tushunchaga sirtqi belisi va vazifasiga koʻra oʻxshash boʻlganligi uchun, uni darvoza soʻzi bilan atab yuborilgan. Natijada darvoza soʻzi mana shu atash hisobiga koʻchma maʼno hosil qilgan.

Oddiy metafora, ot turkumidan tashqari, feʼl va sifat turkumiga oid soʻzlarda ham uchraydi. Masalan, Qizim, dadang, enang, hasratingda kuyib bitdi

ijodida faol qoʻllanuvchi lingvopoetik vositalardan biri metaforadir. Tilimizda metafora deyilganda narsa-buyum, voqea va hodisalar oʻrtasidagi oʻzaro oʻxshashlikka asoslangan maʼno koʻchishi tushuniladi. Maʼno koʻchishining bu turi adabiyotshunoslikda istiora deb yuritiladi.

Metaforaning paydo boʻlishi va lingvopoetik vosita sifatida amalda boʻlishiga eʼtibor berilsa, bir qator jihatlari mavjudligi koʻzga tashlanadi. Avvalo, metafora nutq jarayonida hosil boʻladi. Uning shakllanishi toʻgʻridan toʻgʻri insonning fikrlash doirasi, tafakkuri qamrovi bilan bogʻliq. Inson faoliyati juda ham serqirra boʻlib, u tabiat va jamiyatda boʻlayotgan har bir oʻzgarishni kuzatib boradi, voqea-hodisalarga, narsalar va shaxslar haqidagi bilimlarini tinimsiz ravishda boyitib boradi, ular haqidagi fikr va tasavvurlarini maʼlum bir obrazlar sifatida ongida muhrlaydi. Bu falsafiy xulosalar oʻrni kelganda koʻchma maʼno kasb etib nutqqa koʻchadi. Tilshunos M.Yoʻldoshev metafora va oʻxshatish orasida quyidagi farqlar mavjudligini koʻrsatadi: 1. Oʻxshatishda soʻzlar oʻz maʼnosi bilan ishtirok etadi. Metaforada soʻzlar doimo koʻchma maʼnoda boʻladi. 2. Oʻxshatishda ikki komponent oʻxshatiluvchi obyekt va oʻxshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli boʻladi. 3. Oʻxshatishlarda kengayish imkoniyati koʻp, bir gap hatto abzas darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa soʻz yoki soʻz

birikmasidan iborat boʻladi. 4. Oʻxshatishda maxsus koʻrsatkichlar boʻladi: -dek, -day, -simon, -larcha,-kabi, -singari, oʻxshamoq va boshqalar. Metaforalarda bunday koʻrsatkichlar boʻlmaydi. Buni quyidagi misoldan ham koʻrish mumkin: Karim tulkiday ayyor odam. Oʻxshatish konstruksiya. Bunda Karim oʻxshatish subyekti, tulki oʻxshatish etaloni, ayyor oʻxshatish asosi, -day oʻxshatishning shakliy koʻrsatkichi. Bu toʻliq oʻxshatish. Karim tulki. Bu qisqargan oʻxshatish, chunki gapda oʻxshatish asosi (qaysi xususiyati oʻxshashligi) va koʻrsatkichi ifodalanmagan. Voy, tulki-yey... (Karimga nisbatan ishlatilmoqda). Bu metafora hisoblanadi. Chunki Karimning ayyorligi obrazli tarzda ifodalanayapti. Butunlay qayta nomlanayapti”. Mashriq Yunus sheʼriyatida qoʻllanilgan lingvopoetik vositalar orasida metaforalar muhim oʻrin tutadi. Metaforalar koʻpchilik adabiyotlarda taʼkidlanganidek, oʻz lingvopoetik xususiyatiga koʻra doimiy va individual metaforalarga boʻlinadi. Abdulla Qahhor ijodi tili boʻyicha tadqiqot olib borgan A.Hasanovning qayd etishicha, A.Qahhor individual metaforalar yaratishda ot, sifat, feʼl turkumiga oid leksemalardan unumli foydalangan. Jumladan, ot-metaforalardan oʻz ideolektida reallashgan xususiy yashirin maʼnolarni implisit tarzda ifodalashda, taʼsirchan, obrazli ifodalar yaratishda; sifat-metaforalarning konnotativ maʼnolaridan qahramonlarning xarakter-xususiyati, siyrat va suratini tasvirlashda, asar kompozitsiyasida, voqealar rivojida yechiluvchi mavhum konsituatsiyaga ishora qiluvchi tugun hosil qilishda va badiiy-gʻoyaviylikka erishishda; feʼl-metaforalardan voqea-hodisaning intensivligini oshirishda, personajlar xarakter-xususiyatiga implisit ishora qilishda taʼsirchan omil sifatida foydalanib, hikoyalari tasviriyligini, badiiy-estetik quvvatini oshirgan”

Chet tillari tilshunosligiga oid nom koʻchishlar bilan ham tanishishga harakat qildim. Ingliz tilshunosligiga - Siz **itdan** boshqa narsa emassiz, har doim **yig'laysiz**. Ushbu birlik ingliz tilshunosligida metaforani yuzaga keltirar ekan. Koʻrinib turganidek, ingliz tilshunosligida uchrovchi metaforalar oʻzbek tilshunosligidagi metaforadan tubdan farq qilyapti.

Butun dunyo bir sahna va barcha erkaklar va ayollar shunchaki o'yinchilar. Ularning chiqish va kirish joylari bor. Uilyam Shekspir

Personifikatsiya maʼlum soʻzning leksik maʼnosi ifoda etgan jonli obyekt oʻziga qiyoslanib, oʻxshatilib qaralgan jonsiz obyektни nomdosh qilib olishi boʻladi. Mazkur jonli va jonsiz obyektlar oʻrtasidagi oʻxshashlik ham sirtqi belgi, harakat va holat xususiyati, vazifasi kabilarga asoslanadi. Ammo bu oʻxshashlik nomdosh boʻlib olgan obyektga jonli holat baxsh etish orqali yuzaga chiqadi. Masalan, dam soʻzining leksik maʼnolaridan biri nafasni ifoda etgan. Bu soʻz nafasga sirtqi belgisi oʻxshash

bo'lganligi uchun quyosh tafti, haroratini ham ifoda etadigan bo'ldi. Natijada dam so'zi ko'chma ma'no hosil qildi. Masalan, Quyosh damini g'ir-g'ir esgan shamol kesar edi (Oybek).

Personifikatsiya, ot turkumidan tashqari, fe'l va sifat turkumiga oid so'zlarda ham uchraydi. Masalan, Qiz sho'rlikni dard yedi, dardga qo'ygan kim edi (qo'shiq). Nimrang – beor tok, qo'lga ham chidamli bo'ladi (R. Musamuhamedov) gaplaridagi yemoq fe'li va beor sifatining ma'nolari personifikatsiya natijasida hosil bo'lgan.

Sening sirlaring menga belgili:

Yig'lagulikdir, emas kulgili.

Mayli, sen ,bunga ortiq qayg'urma ,

Ruxing tushirib ,umiding uzma.

("Bir so'rog' " 27-bet)

"**Ruxing tushirib**", "**umiding uzma**" birliklari o'zaro ko'chma ma'noli birliklar hisoblanadi. Bizga ma'lumki, "rux" bu mavhum jumladir. Shu sababli uni tushirib yuborib bo'lmaydi. Tushirib yuborish holatlari aniq jummalarga nisbatan qo'llanilsa, to'g'ri hisoblanadi. "Umiding uzma" jumlasini ham xuddi shunday. "Umid" birligi ham mavhum birliklar sirasiga mansub, "uzmoq" tushunchasi esa aniq ,ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab imkoni bor narsa-predmetlarga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu she'r orqali shoir lirik qahramonga :sening sirlaring, ichki kechinmang menga belgili ya'ni ayon. Ular kulgili emas, aksincha yig'lagulikdir. Ammo sen bunga qayg'u qilib ruxing tushirma, umiding uzma -deya taskin, dalda bermoqda. Purna'no satrlarni o'qigan shaxsning ham o'z o'rnida qalbiga taskin beradi bu she'r.

Sinesteziya ma'lum so'zning leksik ma'nosi ifoda etgan obyekt boshqa sezgi orqali his etiladigan ikkinchi bir obyekt (kishi subyektning umumlashtirishida o'ziga o'xshash bo'lgani uchun) nomdosh qilib olishidir.

Buning orqasida mazkur so'z ikkinchi obyektini ham ifoda etuvchi ko'chma ma'noga ega bo'ladi. Masalan, mayin so'zining leksik ma'nolaridan biri paypaslab, ushlab ko'rish orqali his etiladigan belgini ifoda etadi. Tovushning ohista va yoqimlilik belgisini ifoda etuvchi ko'chma ma'no esa mazkur ma'nodan hosil bo'lgan. Bu belgilar subyektiv o'lchov, sezgiga ta'sir etishi nuqtayi nazaridan umumlashtirilgan va o'zaro o'xshatilgan. Masalan, Faqat suvning mayin jildirashi eshitiladi (S. Zunnunova). Sinesteziya sifat, ot, fe'l Demak, oddiy metaforada belgilariga qarab oddiy qiyoslash, personifikatsiyada jonlantirish natijasida qiyoslash, sinestaziya esa subyektiv holatda qiyoslash o'xshatish uchun asos bo'ladi.

Burungi holing bu kun qolmasmish,

Qizil yuzlaring **so'lib sarg'aymish.**

Tog' kabi gavdang ,**qil kabi** muchang
Burung'i holdan butun o'zgarmish.

(Bir so'rog')

Mashriq Yunus qalamiga mansub ushbu she'riy asarda sinteziya metaforasi qo'llanilgan. She'rning 2-misrasida **so'lib sarg'aymish** birliklari yuz so'ziga nisbatan qo'llanilgan. Aslida so'lib sarg'ayish fe'li o'simliklarga nisbatan qo'llanilishi kerak. Ammo ijodkor ushbu birliklarni **yuz** so'ziga nisbatan qo'llagan va sinesteziya metaforasini yuzaga keltirgan. Undan tashqari ushbu she'riy misralardan birida tashbeh san'ati ham qo'llanilgan. Bizga ma'lumki, tashbeh san'ati o'xshatish asosida yuzaga keladi.

Tashbehda to'rtta unsur mavjud. 1. O'xshamish-tasvirda fikr qaratilgan narsa, yoki tushuncha. 2. O'xshatilmish-tasvirda qiyoslanayotgan narsa yoki tushuncha. 3. Asos- nimaga ko'ra o'xshatishning yuzaga chiqqanligi. 4. Vosita-o'xshatilish belgisi.

She'rning 3-misrasida gavdani tog'ga ,muchani ya'ni kishi tana a'zosini qilga qiyoslash natijasida **tashbeh** san'atini yuzaga keltiradi. Ushbu misrada **gavda va mucha** so'zlari o'xshamish, **tog' va qil** so'zlari o'xshatilmishni hosil qilyapti. O'xshatuvchi vosita esa **kabi** birligidir. Shoir asosni quyidagicha izohlaydi: gavdaning yirikligini tog' bilan , muchaning nozikligini esa qil bilan qiyoslab izohlagan.

TIL

Mungli qushim, sayrab-sayrab kel, anglat,
Kimlar erur Turk tilini sotg'uchi?
Bulbul kabi sayrab turgan bu tilni
Uyalmayin bu o'lkadan otguchi?
Bolday totli, jondan aziz turkchani
Tushunmayin, **xo'rlab-xo'rlab** yotg'uchi?
Mungli qushim, ularni qo'y, sen sayra!
Turk tilining dong'in chiqar ko'klarga!
Qo'y ularni, ular yo'ldan ozsinlar,
El ichida bo'sh bo'g'uzlik sotsinlar!

Jadidchi yozuvchilardan biri bo'lgan Elbek til haqida yozgan ushbu she'rlari bilan milliy uyg'onish harakati uchun ovoz berdi. Uning "Til" deb atagan she'ri ana shunday she'rlardan biridir. Chunki til jadidchilar uchun eng muhim masalalardan biridir.

Til millat ekanligining yaqqol ramzi sifatida qabul qilinadi. Til milliy birlikni belgilashda yetarli element bo'lmasa-da, millatchilik harakatlarida hal qiluvchi omil sifatida ajralib turadi. Buning sababi tilning funksionalligidir. Xalqlarning tillari ularni birlashtirib turuvchi omillardan biridir. Elbek she'rning ilk misralaridanoq ona

tilini qushga o'xshatadi. O'zi qushga o'xshatgan ona tilini g'amgin ko'radi. Bolsheviklar siyosatining faoliyati bo'lgan til o'zgarishiga munosabatini she'rlari bilan ifodalagan. Ijodkorning ushbu she'rda metafora (istiora) va mukarrar san'atidan foydalangan. Tilni **munqli qushga** qiyoslashi metaforani yuzaga keltiryapti, **sayrab-sayrab** va **xo'rlab-xo'rlab** so'zlarining o'zaro takror qo'llanilishi mukarrar badiiy san'atini yuzaga keltiradi.

Tilni sevish, uni qadrini ko'klarga ko'tarish bizga Alisher Navoiy bobokalonimizdan meros qolgan desak xato qilmaymiz. XX asrda buni jadidlar hayoti va ijodi yana bir bora isbotladi. Navoiy bobomiz o'z ijodida tilni xazinaga qiyoslab, uni o'rab yotgan ilonlar, chayonlardan asrashni biz ajdodlarga nasihat tarzida ta'kidlab ketgan edi. Jadidlar davrida ham tilga ta'rif berib, tilni sevib, ko'klarga ko'tarib shu mavzuda ijod qilganlar yo'q emas, albatta. Bir esga oladigan bo'lsak, Abdulla Avloniy, Fitrat, Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziyning ijodlari ko'z oldimizda gavdalana boshlaydi.

Tabiatning kuchli qo'li orqali
Yer ostidan **qaynab chiqqan buloqning**
Qarshisiga turli kuchlar keltirib
Qo'ygan bilan hech to'xtatib bo'lurmi?

("Parcha")

Jadidshunos ijodkorning ushbu she'riy asarida sintesteziya metafora qo'llanilgan. **Tabiatning kuchli qo'li** jumlasini metaforaning sintesteziya turini hosil qilyapti. Bizga ma'lumki, kuchli yoki kuchsiz qo'l jummalari shaxsga ya'ni insonga nisbatan qo'llanilishi kerak. Ammo shoir ushbu birlikni tabiatga nisbatan qo'llab metaforani ya'ni istiorani yuzaga chiqaryapti. 179-bet)

Tilshunoslikda eng ko'p murojaat qilinadigan lingvopoetik vositalardan biri metafora hisoblanadi. Yuqoridagi misoldan ham anglashiladiki, bu usulda muallif narsa yoki tushunchalar o'rtasida o'xshashlik mavjudligiga asoslanib, bir narsaga xos belgi-xususiyatlarni boshqa bir narsaga ko'chiradi va shu tariqa nom ko'chish hodisasini yuzaga keltiradi. Elbek ijodining aksariyat qismida nom ko'chish turlaridan metafora ko'p o'rin egallaydi.

G'amli yelda, tutqun elda bandilar
Qop-qorong'u zindon ichra termilar.
Yel esar, unlar sari yo'rtar, yelar,
Eltmak istab erkin eldan mujdalar.

Ushbu lirik asarning satrlarida ham sinesteziya metaforasi mavjud. Bizga ma'lumki metafora narsa-predmetlar orasidagi o'zaro o'xshashlik asosida hosil bo'ladi. Baytning dastlabki misrasidayoq metaforani uchratishimiz mumkin. Bu yerda

shoir **g'amli inson** jumlasiga o'xshatish yo'li orqali **g'amli yel** jumlasini keltirgan va natijada metafora (istiora) yuzaga kelgan. "Yel" so'ziga nisbatan qo'llanilgan "g'amli" jumlasida majozilik mavjuddir. Bizga ma'lumki yel bu shamol. Shamol esa mayin, shiddatli, kuchli, kuchsiz kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ammo "g'amli yel" mavjud emas. Ijodkor tasavvuricha hosil qilingan ushbu birikma metaforani yuzaga chiqaryapti.

Mana, hozir men shu **qo'rqinch dengizining**

Yurgan yo'ldan meni to'p-ta qaytarmas...

(Tilak yo'lida)

Ijodkorning ushbu she'riy asarida **qo'rqinch dengiz** jumlasini qo'llanilishi natijasida metafora hosil bo'lyapti. Batafsil izohlashga harakat qilib ko'raylik: qo'rqinch birligi mavhum birliklar sirasiga mansub va bu tushuncha insonning ichki -kechinmasi bilan bog'liq tuyg'u hisoblanadi. Demak, qo'rqinch inson va jonivorlarga xos tuyg'u ekan, unda bu birlikni dengizga, umuman, aloqasi yo'q hisoblanadi. Muallif esa bu birlikni dengiz so'ziga nisbatan qo'llaydi, natijada ko'chma ma'noning turi bo'lmish metaforani yuzaga keltiradi.

Quyida shoirning yana bir lirik asari bilan tanishib, tahlil qilamiz:

Mening uchun doxi (yana) shul choq **umid yo'li** ochilar

Ana shunday tilaginga yetmak menga qulaydir

(Mening tilagim, 29-bet)

Ushbu lirik asarning dastlabki misrasida **umid yo'li** jumlasini qo'llanilib metaforani hosil qilyapti. Bizga ma'lumki "**umid**" so'zi mavhum ot hisoblanadi. Uni biz ko'rolmaymiz faqat his qila olamiz, xolos. Ammo "**yo'l**" so'zi aniq ot, biz uni ko'ra olamiz. Shoir ushbu ikki birlikni o'zaro birga qo'llagan va natijada ko'chma ma'no yuzaga kelgan. Yuqorida izohlab o'tilgan birliklar tilshunoslikda nom ko'chishning metafora turini, badiiy adabiyotshunoslikda esa istiora she'riy san'atini hosil qiladi.

Nechun quturdi yana ko'zlarida to'fonlar,

Nechun tutashdi yana ko'ngling ichra vulqonlar?

Nechun go'zal, quvonch ichra yuzlaring so'lg'un,

Nechun yuzingda urar **qayg'u dengizi** to'lqin?

(Nechun? 52-bet)

Xalqsevar ijodkorimizning qalamiga mansub ushbu she'riy asarning so'nggi misralariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, **qayg'u dengizi** jumlasiga ko'zimiz tushadi. Bizga ma'lumki, **qayg'u** jumlasini mavhum birlik bo'lib, shaxslarning ichki-kechinmasiga nisbatan qo'llaniladi. Dengizga nisbatan esa **qayg'u** jumlasini emas, aksincha tinch, sokin, to'lqinli kabi sifatlar qo'llanilishi ma'qbul hisoblanadi. Jadidchi shoirimiz tomonidan qo'llanilgan **qayg'u dengizi** jumlasini ko'chma ma'noni hosil qilyapti. Undan tashqari ushbu she'riy misralarda **anafora** badiiy san'atini ham uchratishimiz mumkin. Misralar boshida takror qo'llanilgan "**nechun**"

so'zi ushbu badiiy san'atni hosil qilyapti. Sheqariy asarda koqzga tashlangan ushbu misralar kitobxonda ajib bir qiziqish uygqotadi.

Tong shamoli sekingina **qanot qoqib** o'tkanda,
Umidimning gulboqchasin chechak bilan bezaydir.
Buni ko'rib **xayolimning o'ksizgina qushchasi**
Chechak uzra qo'nib shodlik tovish bilan sayraydir.

("Ko'ngil chechagi"34-bet)

Asarni tahlil qilarkanmiz, dastlabki satrlardayoq nom ko'chish hodisasiga guvoh bo'lamiz. Keling, birgalikda tahlil qilamiz. Hammamizga ma'lumki, qanot bu uchuvchi hasharot, parrandalarga xos a'zodir. Ammo ijodkorimiz bu jumlati tong shamoliga nisbatan qo'llaydi, natijada tilshunosligimizda keng tarqalgan metaforani yuzaga keltiryapti. Keyingi misrasiga qaraymiz: "umidimning gulboqchasi" birligi qo'llanilgan. Umid bu insonning mavhum tuyg'usi hisoblanadi va bu tuyg'uda gulbog' mavjud emas. Lekin lirik ijodkorimiz bu tomonlama had bilmas darajada go'zal jummalarni hosil qilishda davom etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'ychiyeva B - "O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. -T :O'qituvchi, 1996.255-278-betlar
2. Elbek - "Boshlang'ich maktabda ona tili"//Tanlangan asarlar. T.:Sharq, 1996
3. Elbek - "Yozuv yo'llari"//Tanlangan asarlar. -Toshkent:Sharq, 1999.274-290-betlar
4. www.google.com